



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 565,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,0 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlari – 561,7 mlrd.so'mni (101,3 foiz), o'rmon xo'jaligida – 2,8 mlrd.so'mni (102,2 foiz), baliq xo'jaligida – 0,9 mlrd.so'mni (122,8 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Tayloq tumani (109,6 foiz), Narpay (102,5 foiz) Jomboy tumanlarida (102,4 foiz) va Samarqand (102,5 foiz) shaharida kuzatildi. Urgut (100,3 foiz), va Paxtachi (100,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand tumanining ulushi 13,8 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Tayloq va Urgut tumanlari mos ravishda 11,6 foiz va 11,3 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Kattaqo'rg'on shahari (0,8 foiz), Samarqand shahari (0,8 foiz) va Jomboy (3,3 foiz) tumanlarida qayd etildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,9 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 100,7 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 102,2 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,9 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,5 foizi – fermer xo'jaliklariga, 10,6 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 88,5 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 81,9 fozni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2018 yilning yanvar – mart oylarida 3,2 ming tonna (100,7 foiz) sabzavotlar, 0,3 ming tonna (106,5 foiz) meva va rezavorlar yig'ib olindi.

### Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi, foizda



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida sabzavotlarning 43,3 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi.

## Chorvachilik




2018 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 466,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 84,0 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 58,2 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-martga nisbatan 102,9 foizga ko'p), 263,3 ming tonna sut (103,5 foizga), 242,6 mln.dona tuxum (100,1 foizga), 93,6 (99,5 foizga) ming dona qorako'l teri ishlab chiqarildi.

### Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Fermer xo'jaliklari

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 90,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 96,4 foizi, tuxumning 36,0 foizi, qorako'l terining 91,1 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni


2018 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1473,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 627,9 ming boshga, qo'y va echkilar– 2281,3 ming boshga, parrandalar – 11286,9 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 1443,7 ming boshga (102,1 foizga), shu jumladan sigirlar– 640,5 ming boshga (98,0 foizga), qo'y va echkilar – 2294,1 ming boshga (99,4 foizga), parrandalar – 9106,5 ming boshga (123,9 foizga) ko'paydi.


## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2018 yining 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 25,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 41,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 32,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- 230-85-30
- 230-85-31